

GERMANIYADA TAHSIL OLGAN BUXOROLIK TALABA QIZNING BIR MAQOLASI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada buxorolik talaba qiz – Shamsulbanot Eshmurod qizining tahsil olish uchun Germaniyaga borganligi, uning Germaniyadagi faoliyati, oilasi va farzandlari hayotiga oid ma'lumotlar muhokama qilingan. Shuningdek, "Berlin dorilfununi tibbiy sho'ba talabasi Shamsulbanot" imzosi ostida "Germaniyada bolalar tarbiyasi" mavzusida maqola yozganligi, mazkur maqola Buxoro Respublikasining rasmiy matbuot organi "Ozod Buxoro" gazetasining 1924-yil 14-avgustdagi 127-sonida to'liq chop etilganligi bilan bog'liq dalillar tarixiy manba va adabiyotlar yordamida izohlangan.

Shamsulbanot Eshmurod qizi (Shiratxonova, 1905-1982) bo'lib, Germaniyaga borgach Germaniyada tahsil olgan buxorolik talaba qiz- Shamsulbanotning "Germaniyada bolalar tarbiyasi" maqolasi xususida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Berlin universiteti, maorif komissiyasi raisi, maorif nozirligi, dorilfunun ta'limi, tarbiyaxona, zararli qurtlar, tibbiy sho'ba talabasi.

КОММЕНТАРИИ К СТАТЬЕ БУХАРСКОГО СТУДЕНТА, ОБУЧАЮЩЕГОСЯ В ГЕРМАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются сведения о дочери бухарского студента Шамсулбанота Эшмурада, поехавшей на учебу в Германию, ее деятельности в Германии, жизни ее семьи и детей. Также он написал статью «Образование детей в Германии» за подписью «Шамсулбанот, студент медицинского отделения Берлинского медицинского университета», и эта статья была опубликована полностью в 127-м номере от 14 августа 1924 г. В газете «Озод Бухара», официальном печатном органе Бухарской Республики, соответствующие доказательства объясняются с использованием исторических источников и литературы. Шамсулбанот – дочь Эшмурод (Ширатханова, 1905-1982), студентки из Бухары, учившейся в Германии после поездки в Германию.

Ключевые слова: Берлинский университет, председатель комиссии по образованию, инспекция образования, медицинское образование, детский сад, вредные глисты, студент-медик.

COMMENTS TO THE ARTICLE OF A BUKHARAN STUDENT STUDYING IN GERMANY

Abstract. This article discusses the information about the daughter of the Bukhara student Shamsulbanot Eshmurad, who went to study in Germany, her activities in Germany, the life of her family and children. He also wrote an article "Education of Children in Germany" signed "Shamsulbanot, a student of the medical department of the Berlin Medical University", and this article was published in full in issue 127 on August 14, 1924. In the newspaper "Ozod Bukhara", the official printed organ of the Bukhara Republic, the relevant evidence is explained using historical sources and literature. Shamsulbanot is the daughter of Eshmurad (Shiratkhonova, 1905-1982), a student from Bukhara, who studied in Germany after a trip to Germany.

Key words: University of Berlin, chairman of the education commission, education inspection, medical education, kindergarten, harmful worms, medical student.

Kirish. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati yillarida (1920-1924) xorijga o'qish uchun yuborilgan talabalarning hayoti, tarixiy taqdirleri haqida talaygina maqola va risolalar yozilgan bo'lsada, bu sohadagi izlanishlar hamon davom etmoqda. BXSР hududidan Germaniyaga yuborilgan yoshlarning soni turli manbalarda har xil qayd etiladi. O'sha yillarda Berlinga va Turkiyaga BXSР hukumati 123 nafar o'quvchi va talabalar yuboradi degan ma'lumotlar ham bor.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqola Buxoro Respublikasining rasmiy matbuot organi "Ozod Buxoro" gazetasining 1924-yilgi sonlari va turli davrlarda yozilgan tarixiy manba va adabiyotlar yordamida izohlangan. Ma'lumotlarni dalillashda qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi

metodlar qo'llanilgan.

Muhokama va natijalar. BXSР hududidan Germaniyaga yuborilgan yoshlar orasida 1 nafar qiz bola ham bo'lgan. U Shamsulbanot Eshmurod qizi (Shiratxonova, 1905-1982) bo'lib, Germaniyaga borgach, Berlindagi o'rta maktab mudiri Rosma huzurida muvaffaqiyatli imtihon topshirgan. Qabul imtihonida yuqori ball olib, Berlin universiteti, tibbiyot fakultetiga o'qishga kirgan. Shamsulbanot Germaniyadagi Buxoro maorif komissiyasi raisi Olimjon Idrisiy bilan keyinchalik oila qurgan. Olimjon Idrisiy qozonlik tatarlardan bo'lib, Birinchi jahon urushi yillarida nemislarga asir tushgan edi. Nemislarning musulmon asirlariga ijobiy munosabatidan foydalanib, Berlin yaqinidagi Vunsdrof shaharchasidagi musulmon masjidida imom-xatib bo'lgan.

1922-1924 yillarda BXSР va Germaniya maorif nozirligi o'rtasida talabalar masalasi bo'yicha vositachilik qilgan. U ham Germaniyadagi talabalar hayotiga oid bir necha maqolalar yozgan [1]. Ularning o'g'li Eldor Idrisiy Germaniyada ilmiy bir jurnalda muharrir bo'lib ishlagan.

Shamsulbanot Eshmurod qizi BXSРdan Germaniyaga o'qish uchun yuborilgan buxorolik talabalar kabi Germaniyada darhol o'qishni boshlamay, qisqa 6 oy ichida nemis tilini o'rgangan. Asosan, ular nemis xonadonlariga joylashtirilgan.

Shamsulbanot va buxorolik talabalar nemis muallimlari ko'z oldida o'z qobiliyatlarini namoyish qilib nemis tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirganlaridan so'ng, Berlin, Drezden, Brandenburg, Vinsberg, Golshteyn universitetlarining turli fakultetlariga imtihon qilinib, o'qishga yuborilganlar. Buxorolik yoshlar asosan, tibbiyot, texnika, geologiya, qishloq xo'jaligi, matbaachilik sohalarida tahsil olganlar. Shamsulbanot esa Berlin dorilfununining tibbiyot fakultetida o'qigan. U dorilfunun ta'limi vaqtida Berlindagi ko'plab tibbiy muassasalarga borgan va u yerdagi umumiy holatlar bilan sinchkov tarzda tanishgan. Endigina 19 yoshga qadam qo'ygan buxorolik talaba qizning bu bilimdonligi va voqeliklarni tahlil etishi diqqatga sazovordir. U "Berlin dorilfununi tibbiy sho'basi talabasi Shamsulbanot" imzosi ostida "Germaniyada bolalar tarbiyasi" mavzusida maqola yozgan. Mazkur maqola Buxoro Respublikasining rasmiy matbuot organi "Ozod Buxoro" gazetasining 1924-yil 14-avgustdagi 127-sonida to'liq chop etilgan[2].

Maqolaning bundan 100 yil muqaddam yozilganligi, uning matnida muhim tarixiy ma'lumotlar keltirilganligini inobatga olib, mazkur matnni arab imlosidan joriy imloga o'girib, to'liq tarzda ilk bora aynan berishni lozim topdik.

Ozod Buxoro, 127-son. 1924-yil 14-avgust

Germaniyada bolalar tarbiyasi

Germaniyadagi "Kinderxauz" bolalar tarbiya qilaturg'on uylarning eng mukammalidir. Bu uy 1906-yilda Berlinda ta'sis etilg'on. Bu uyda bolalarni tug'ilgan kunlaridan boshlab bir yarim yoshgacha tarbiyalash fanlarning so'nggi qonunlarga muvofiq tarbiya qilinadur.

Germaniyada bolalarga maxsus professorlar, bolalarning yosh vaqtida o'lib ketishlariga juda jiddiy ahamiyat berib har xil tajribalar qilib qaraladur. So'nggi tajribalarning natijasida bolalarning yoshlikdan o'lishlariga sabab xo'raqlarning kamligi, xo'raqlar ul yosh bolalarning mijozlariga yarasha muvofiq ravishda berilmaganligidan, ayniqsa, nazofatga diqqat qilinmog'onlikdan hosil bo'ladur, degan qarorga kelganlar. Bu tarbiya xonada bolalarni tarbiya qilishda quyidagi nuqtalarga ko'proq diqqat qilinadur:

Nazofat, har kunda 2 marta yuvub, ust kiyimlarini almashtirish, changlik bir zanni bolalar yonig'a keltirmaslik, bola nafas olg'onda zararli qurtlarni bolaning og'ziga yaqin keltirmaslik bolani tarbiya qilaturg'on ona yoki murabbiya bolaning yoniga maxsus kiyim kiyib kelmagi tegishdur. Undan keyin bolalarning yotg'on joyida chang bo'lmasligi kerak.

Bolani ko'proq sof havo olishg'a, ya'ni sof havoda yurgizishga tirishiladur. Tarbiya xonaning katta bog'chasi uyning bog' tarafida boloxonasi bo'lmog'i lozimdur. Bolalar shu uyning bog'chasida hech bo'lmasa boloxonasiga chiqib oftobning nuridan sof havoda foydalanadurlar. Bog'ning havosi buzilmasligi uchun u yerda hech kimsa kirgizilmaydur.

Bolalarga onalarning suti yoxud onasizlarga beriladigan xo'rakning yosh bolalar yoshiga muvofiq bo'lishi e'tibor qilinadur, masalan, onaning suti mashina bilan yog'i biroz ajratilib biroz suv ham qo'shilib sutni bolaning hazmiga muvofiq qilinur.

Bu tarbiyaxona hozirgacha mukammal bo'lsa ham qanoatsiz nemislarning professor va do'xturlari bolalar tarbiyasiga yanada ahamiyat beradurlar. Bu haqda yangi yo'llar qidirib topadurlar. Masalan: bu uyda yetilmasdan 7 oy ichida tug'ilgan bolalar bo'lib bularni maxsus savatlarga qo'yib onasi qornidagi harorat darajasidagi sun'iy issiqlik bilan tarbiya qiladurlar. Bunday faniy tarbiya asosida ul bolalar ham o'lmay odam bo'lib yetishadurlar.

Bizlarda esa sog'-salomat bo'lib tug'ilganlari ham kasal bo'lib o'lib qoladurlar. Mana bu bolalarga

jismoniy tarbiya berilmaganligidan keladur. Bu uyni man tekshirganimda ko'p ma'lumotlar oldim, lekin hammasini bu yerda yozib bitirish mumkin emas. Bu uyning murabbiyi bo'lgan bir xodim: "Bu yerda siz o'zingiz tibbiy mutaxassis bo'lishga o'qursiz ekan, agarda siz bu yerda bolalar tarbiyasi bilan biroz tanisha olsangiz buxoroda ham bunday bolalar tarbiyasi uyini vujudga keltirishga mumkindur. Man har zamonda sizlarga yo'l ko'rgazishga, rahbarlik qilishga so'z beraman",-dedi. Man professorning bolalar tarbiyasi haqida so'zlagan so'zlarini ruscha qilib Smerman o'rtoqqa tushuntirdim. Ul Buxoroga qaytgach maorif nazoratiga o'zining ko'rgan taassurotlarini so'zlar, Buxoroda ham shunday uylar ochilishini umid etib qolamiz.

Berlin dorulfununi tibbiy sho'basi talabasi Shamsulbanot. 15 iyul. Berlin.

Xulosa va izoh o'rnida ta'kidlash joizki, guvohi bo'lganimizdek, talaba qiz Shamsulbanot o'z maqolasida "Kinderxauz" deb nomlangan Germaniyaning Berlin shahrida joylashgan bolalar uyi 1906-yilda tashkil etilgan ekan. Nemis bolalari dunyoga kelganidan to bir yarim yoshga to'lgunicha uyiga yuborilmasdan, shu joyda parvarishlanar, bolaning yaxshi o'sishi uchun har biriga bir nafar professor biriktirilgan ekan. Bu nemis mutaxassislari har bir bola ustida ilmiy tadqiqotlar olib borib, uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ovqatlari, ichimligi, kiyimi, hatto, nafas olishiga kerak bo'lgan toza havosigacha nazoratni tashkil etishar ekan. Maqoladan anglashiladiki, bundan 120 yillar muqaddam nemis professorlari tomonidan bir uskuna ixtiro etilib, 7 oyda chala tug'ilgan bolalarni ham asrab qolingani, ya'ni sun'iy issiqlik orqali ona qornidagidek muhit yaratilgan ekan. Shamsulbanot sinchkovlik bilan kuzatib, kashfiyotlarga guvoh bo'lgan ekan, o'z vatanidagi holat bilan xayolan solishtiradi va Buxoroda bolalar sog'lom tug'lsa-da, voyaga yetmasdan ko'plari turli yuqumli kassalliklar bilan o'lib ketaveradi, degan fikrlarga keladi. Shuning uchun maqola so'nggida shunday qat'iy qarorga keladiki, Buxoroga qaytib borsam, albatta u yerda shunday uylar ochishim zarur deb hisoblaydi.

Afsuski, ezgu niyatli bu buxorolik talaba qiz o'z maqsadiga erisha olmadi. 1925-yil BXSr hukumati butunlay tugatilgach, chet ellarga o'qish uchun yuborilgan talabalar o'z holiga tashlab qo'yilib, ular moddiy ta'minotsiz qoldi. Vatanga qaytib kelganlarga "imperializm malayi", "nemis ayg'oqchisi", "Vatan xoini" kabi yasama ayblar qo'yilib, 15-20 yil surgun qilindi yoki bundaylarga nisbatan otuvga hukm qo'llanildi[3].

Oz sonli bo'lsa-da xorijda yashab qolishga muvaffaq bo'lganlardan biri Shamsulbanot edi. U 1982-yilgacha Germaniyada istiqomat qildi. Vatan mehri va yodini bir daqiqa ham unutmay muhojirlikda yashashga mahkum etilgan yurtimiz farzadlari tarixini o'rganishni istiqbolda ham davom ettirish zarur [4]. Bu esa, XX asr birinchi yarmi o'lka tariximiz solnomasini keng qamrovli o'rganishimizga yordam beradi degan umiddamiz.

Biz yuqoridagi satrlarimizda Shamsulbanot Germaniya yashab qolganligini, Buxoro maorif komissiyasi raisi Olimjon Idrisiy bilan keyinchalik oila qurganligi, Olimjon Idrisiy qozonlik tatarlardan bo'lganligi, 1922-1924-yillarda BXSr va Germaniya maorif nozirligi o'rtasida talabalar masalasi bo'yicha vositachilik qilganligi, u ham Germaniyadagi talabalar hayotiga oid bir necha maqolalar yozganligini qayd etib o'tdik. Olimjon Idrisiyning ham Buxoro rasmiy matbuotida nashr etilgan maqolasini ham manbaviy va tahliliy ahamiyatga egaligini inobatga olib, joriy imloga o'girib, aynan va to'liq tarzda berishni lozim topdik.

Ozod Buxoro, 67-son. 1924-yil 27-mart.

Tahsis va izoh [5]

1923-yil dekabr oyining 16, 19-kunlarida chiqqan "Ozod Buxoro" gazetasining 25-, 26-sonlarida "Germaniyada O'rta Osiyo talabalari" sarlavhali 2 ta maqolani o'qib, quyidagi tahsisni yozishga majbur bo'ldik.

25-son gazetadagi maqolaning oxirida "Hoh talabalarining o'zlari va hoh ularning yo'l boshchilari sho'ro jumhuriyatlari ittifoqining Berlindagi safarotxonasi bilan sira aloqalari bo'lmog'on" deyiladurkim, bu gap hech to'g'ri emasdur. Chunki Buxoro talabalari o'zlarining yo'l boshchilari va Turkiston talabalari o'zlarining kattaroqlari vositasi bilan o'rtoq Risqulov Berlinga kelmasdan ilgariroq Rusiyaning safarotxonasi bilan aloqa tutadur edilar, bu aloqa hanuz davom qilmoqdadir.

Hammaga ma'lumdurkim, Buxoro talabalarining ko'pisi 10 yosh bilan 18 yosh o'rtasida bo'lg'on talabalar bo'lg'oni uchun oilaviy maktabda turib o'qishdan boshqa narsa bilan mashg'ul bo'la olmadilar. Boshqalarning birinchi vazifalari esa nemis tiliga o'rganib tezroq tegishli maktablarga kirish edi. Shunday bo'lsa ham, talabalarining siyosiy tarbiyalariga ahamiyat berilmaydur, deb aytib bo'lmaydur. Chunki oz bo'lsa ham talabalar vaqtlari sig'dirishlik ravishda siyosiy tarbiya bilan tanishtirilib, Rusiyadan kelgan matbuotni o'qib keladurlar.

19-dekabrda chiqqan maqolaning boshida "Germaniyada yashaguvchi Sharq muhojirlari bilan talabalarining aloqalari juda zaif bo'lg'on" deb aytiladurkim, bundan talabalar bilan muhojirlar orasida oz

bo'lsa ham aloqaning borligi va faqat u aloqaning zaif bo'lg'onligi anglashiladur. Holbuki, Buxoro talabalarining Sharq muhojirlari hech birtasi bilan aloqalari yo'qdur va muhojirlarning borligini bilganlar talabalar o'rtasida bormidi ekan? Keyin "Buxoroliklar bilan turkistonliklar o'rtasida birlik bo'lmog'on va bir martaba bo'lsun bularning birlashgan majlislari qilinmog'on" deyiladur. Bu ham haqiqatdan uzoqdur. O'rtoq Risqulov Berlinga kelib ketmasdan ko'p avval Buxoro va Turkiston talabalar jamiyatlarining ko'p marotaba majlislari bo'lib o'tgan edi. Yana shu maqolaning bir joyida "Birinchii martaba sho'ro jumhuriyatlari ittifoqining Berlindagi safiri va savdo vakilining ishtiroklari bilan bir necha marta talabalarining birlashgan majlislarini qilishga to'g'ri keldi", deb aytadilar. Bu jumladan o'rtoq Risqulov kelgandan keyin bularning mushtarak majlislar bo'lg'oni anglashiladur. Xolbuki, Rusiya safiri va savdo vakilining ishtiroki bilan Risqulov vaqtida bir nechta majlis emas, hatto bir majlis ham bo'lg'oni yo'qdur. Buni o'rtoq Rizqulov yozg'on yoki so'zlog'on bo'lsa, yolg'onlab va ehtimol xayolidagina bo'lg'on fikrlarni so'zlog'on bo'ladur. O'rtoq Kiritinskiy (?) bilan savdo vakili o'rtoq Ostomo...(?) maydondadur. Bu xabarning yolg'on bo'lg'onligini ular ham tasdiq qilsalar kerak.

Maqolaning oxirida "Buxorodan borg'on studentlarning bir kamchiliklari bo'lsa, u ham ko'pisining ibtidoiy ma'lumotlik va ba'zilarining yosh bo'lmoqlaridur. Germaniyaga oliy ma'lumot olmoq uchun kishilar yuborganda, oliy va o'rta ma'lumotlik kishilarni yubormak ko'proq foyda beru edi", deb aytadur.

Ibtidoiy ma'lumotlik talabalarga student deb aytilmaydur, degan o'rtoq Risqulovning ta'biriga tegmasdan, yolg'iz Buxoro talabalaridan ba'zilarining yosh va ba'zilarining ibtidoiy ma'lumotlik bo'lishlarini kamchilik emas, deb ko'rsatib o'tmakchi bo'lamiz.

Talabalarining 50 dan 49 tasi Germaniyada oliy ma'lumot olib, professor yoki muhandis bo'lib olishlari shart emasdur. Bularning ko'prog'i o'rta darajadagi ziroat, sanoat va har turli texnika maktablarini tamom qilib, Buxoro uchun eng lozim bo'lg'on mutaxassislar bo'lib qaytsalar ahamiyatlidir. Shuning uchun ibtidoiy ma'lumotlik bo'lish kamchilik bo'lmasa kerak.

Yana maqolaning eng oxirgi yerida "Hozirgi tuzilib qoldirilg'on tashkilot davom qilg'on vaqtda Germaniyadagi studentlarimizga chetlilarning ta'siri bo'lishdan qo'rqishga to'g'ri kelmaydur", deb xayoliy bir fikrga kelinadur. Bu esa bir tarafdin studentlarga va ikkinchi tarafdin ularning boshlaridagi BXSJHJ tarafdin belgilangan va 1918-yildan beri eng avval asir sifatida majburiy ravishda Germaniyaga keltirilgan qizil askarlar foydasi uchun sho'ro jumhuriyatlari ittifoqining Germaniyadagi vakolati bilan birlikda va ishonch bilan ishlab kelgan vakilga qarshi haqsiz va asossiz bir hurmatsizlik bo'ladur.

Buxoro va Turkiston talabalarining maqsadlarida Germaniyada o'qib vatandosh mehnatkashlar uchun ishlamakdan boshqa narsa yo'qdur. Talabalarining jamiyatlari bor va ular har vaqt o'zaro yig'inishib bir-birlarida xabardor bo'lib keladur edilar. Talabalar hozirgacha jiddiy suratda faqat til o'rganish ishi bilangina mashg'ul bo'lg'onliklardan tashkilot ishlari juda emas, balki bir oz keyinga qolg'on edi. Butun Buxoro va Turkiston talabalarining bu yerdagi Rusiya mehnatkash studentlar ittifoqi jamiyatiga kirishlari masalasi o'tgan yilning boshidan e'tiboran bu kungacha saforotxonadagi shu ishlarni idora qilguvchi talabalar yo'lbo'shchilari o'rtasida bir necha karra muzokara qiling'on bo'lsa ham, u jamiyatning tuzilib bitmaganligi va talabalarining nemis tilini o'rganish bilan mashg'ul bo'lishlari orqasida bu kungacha yuzaga chiqarilmog'on edi.

Hozirda bo'lsa, Buxoro va Turkiston talabalarini o'zlarining jamiyatlari vositasi bilan "Rusiya sovet talabalarini" jamiyatiga kelib turmoqdadurlar. Ishlar shunday bo'lib turg'onda Buxoro va Turkiston talabalarini haqida har xil yolg'on va asossiz fikrlarni tarqatmoqqa qarshi biz nafratimizni bildirmasdan o'ta olmaymiz.

BXSJHJ ning Germaniyadagi maorif vakolatining raisi: O.Idrisiy

Xulosa. Maqoladan anglashiladiki, bundan 120 yillar muqaddam nemis professorlari tomonidan bir uskuna ixtiro etilib, 7 oyda chala tug'ilgan bolalarni ham asrab qoling'an, ya'ni sun'iy issiqlik orqali ona qornidagidek muhit yaratilar ekan. Shamsilbanot sinchkovlik bilan kuzatib, kashfiyotlarga guvoh bo'lar ekan, o'z vatanidagi holat bilan xayolan solishtiradi va Buxoroda bolalar sog'lom tug'ilsa-da, voyaga yetmasdan ko'plari turli yuqumli kassalliklar bilan o'lib ketaveradi, degan fikrlarga keladi. Shuning uchun maqola so'nggida shunday qat'iy qarorga keladiki, Buxoroga qaytib borsam, albatta u yerda shunday uylar ochishim zarur deb hisoblaydi. Afsuski, ezgu niyatli bu buxorolik talaba qiz o'z maqsadiga erisha olmadi. 1925-yil BXSJH hukumati butunlay tugatilgach, chet ellarga o'qish uchun yuborilgan talabalar o'z holiga tashlay qo'yilib, ular moddiy ta'minotsiz qoldi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Hayitov Sh. va b. Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati. Monografiya. –Toshkent. "Navro'z" nashriyoti, 2020. -205 bet.
2. Shamsulbanot. Germaniyada bolalar tarbiyasi. Ozod Buxoro, 127-son. 1924 yil 14 avgust

3. Rahmonov K. From the history of the trade companies of Germany in Bukhara (1920-1924) CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY VOLUME: 02 ISSUE: 02 | FEB 2021 (ISSN: 2660-6836)

4. Rahmonov K. 1918-1939 yillarda Germaniya" mavzusi yuzasidan dars ishlanmasi" Metodik qo'llanma. –Buxoro. 2019. - 48 bet.

5. Idrisiy. Tahsis va izoh. Ozod Buxoro, 67-son. 1924 yil 27 mart.

6. Shodiyeva S. Бухоро амирлигида турк эмиссарлари фаолияти //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.

7. Shodiyeva S. Afg 'oniston matbuotining buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6. – С. 66-66.

8. Shodiyeva S. "Ёш турклар" инқилобидан сўнг бухорода усмонийлар таъсирининг ошиб боришида матбуот нашрларининг ўрни //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.